

**OTALIK MEHRINING NARXI: VIJDON SAHIFALARIDA
BITILGAN IMTIHON (*Said Ahmadning “Ufq” romanidagi
Ikromjon va Tursunboy obrazlari talqinida*)**

Ubaydullayeva Gulbahor Fozil qizi.

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Ilmiy rahbar: DSc, prof. X.Q. Hamroqulova

ANNOTATION

This article is devoted to exploring the father-child relationship, the responsibilities of fatherhood, and the spiritual and psychological consequences of neglecting these duties, based on the characters Ikromjon and Tursunboy from Said Ahmad's novel *"Ufq"* (*"The Horizon"*). The novel artistically analyzes how the dreams born in the heart of a devoted, honest, patient, and honorable father are shattered—how these dreams, unable to cross the threshold into reality, turn into inner torment. Through the character of Ikromjon, the traditional family values of the Uzbek people, their moral standards, and the paternal upbringing built on patience and compassion are vividly portrayed. In contrast, Tursunboy represents a child who denies that compassion, fails to appreciate his father's selflessness, and is ultimately condemned to live in spiritual anguish caused by his own mistakes. The article highlights the role of the father figure in the system of societal values, interpreting concepts such as conscience, dignity, duty, and honesty through a literary lens, closely linking them to contemporary issues of family and upbringing. The analysis primarily focuses on character psychology, internal conflicts, and ideological clashes. This research serves to reflect on the current state of national spirituality, values, and education through artistic characters in Uzbek prose.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Said Ahmadning *“Ufq”* romanidagi Ikromjon va Tursunboy obrazlari asosida ota–farzand munosabatlari, otalik mas’uliyati va unga bo’lgan bepisand munosabatning ma’naviy va ruhiy oqibatlarini yoritishga bag’ishlangan. Asarda fidoyi, halol, sabrli va or-nomusli otaning qalbida tug’ilgan orzular qanday sindirilgani, bu orzular ostonadan ichkariga kira olmasdan iztirobga aylangani badiiy tahlil etiladi. Ikromjon timsolida o‘zbek xalqining qadimiy oilaviy an’analari, axloqiy mezonlari, sabr va mehrga tayanib qurilgan otalik tarbiyasi gavdalanadi. Tursunboy esa o’sha mehrni inkor etgan, otasining fidoyiligini qadrlamagan, ammo baribir ruhiy jihatdan o‘z xatosi bilan yashab, iztirob chekishga mahkum bo’lgan farzand sifatida talqin etiladi. Maqolada ota obrazining jamiyatdagi qadriyatlar tizimida tutgan o’rni, vijdon, oriyat, burch va halollik kabi tushunchalarning adabiy talqini, zamonaviy oila va tarbiya masalalari bilan uzviy bog’lanib yoritilgan. Tahlillar asosan obrazlar psixologiyasi, ruhiy ziddiyatlar va g’oyaviy

konfliktlar asosida olib boriladi. Ushbu tadqiqot o'zbek nasridagi badiiy obrazlar orqali milliy ma'naviyat, qadriyat va tarbiyaning bugungi holatiga nazar tashlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ikromjon, Tursunboy, otalik burchi, vijdon, ma'naviyat, o'zbek adabiyoti, "Ufq" romani, farzandlik mas'uliyati, Said Ahmad, mehrga bepisandlik.

Kirish

Said Ahmad o'zbek nasrida hayotiy haqiqatni, inson ruhiyatini chuqur badiiy tafakkur bilan yoritgan yirik yozuvchilardan biridir. Uning "Ufq" trilogiyasi – xalqimizning tarixiy og'ushda kechgan kechinmalarini, og'riqlarini va orzularini bir oila timsolida aks ettirgan keng qamrovli roman sanaladi. Asarda o'zbekning qadimiy oilaviy an'analari, mehr-oqibat, vatanparvarlik, sabr-toqat kabi ma'naviy qadriyatlar Ikromjon obrazida mujassam topgan bo'lsa, bu qadriyatlarni oyoqosti qilgan Tursunboy obrazi orqali zamonaviy muammolar fosh etiladi.

Ikromjon – otalik timsoli sifatida Ikromjon – mehnatkash, o'z prinsiplariga sodiq, halol inson. U faqat bir oila boshlig'i emas, balki jamiyatda obro'li, xalq e'tiboriga sazovor otadir. U o'zining oilasi uchun jonini fido qilishga tayyor, har bir farzandi taqdiriga befarq qaray olmaydigan, mehr bilan, lekin qat'iylik asosida yashaydigan inson sifatida gavdalanadi. "Ufq" romanining ko'plab sahifalarida uning bolalariga, xususan, Tursunboyga nisbatan mehri, umidlari, orzulari, tashvishlari ko'rinadi. Ikromjon uchun ota bo'lish – nafaqat farzandni boqish, balki uni hayotga tayyorlash, vijdonli qilib tarbiyalash, mehnatga o'rgatish, jamiyatda o'z o'rnini topishga yo'llashdir. Uning o'ylari, qarorlarida faqat otalik burchi emas, balki ma'naviy yetuklik, xalqparvarlik va halollik tamoyillari yotadi. Ikromjon har doim sabrli, ammo hayotning sinovlari qarshisida bosh egmaydigan kuchli iroda egasi sifatida tasvirlanadi.

"Otaning umidiga dog' bo'lgan iz" Romanning eng dramatik nuqtalaridan biri – Tursunboy obrazidir. U yoshlikda otasi bergan mehr va tarbiyani olgan bo'lsa-da, katta hayot yo'lida bu qadriyatlardan voz kechadi. Uning obrazida Said Ahmad halol mehnat va vijdon asosidagi hayotga teskari yondashuvni fosh qiladi. Tursunboy otasining orzusini puchga chiqaradi. U otasining nafsoniy emas, ma'naviy qarashlariga zid hayot yo'lini tanlaydi.

Ikromjon bolasi haqida orzu qilgan: u mard bo'ladi, xalq xizmatiga kiradi, otasini orqilmaydi. Ammo Tursunboy bu ishonchni barbod qiladi. U urushdan qochib, yashirinadi. Ota uchun bu – nafaqat shaxsiy iztirob, balki otalik mag'lubiyati kabi tuyuladi. "Seni allaqachon o'ldi deb bilganman, sen endi men uchun yo'qsan", deya aytgan o'tkir iboralari orqali Ikromjonning ichki fojiasi chuqur yoritiladi.

Ota va farzand o'rtasidagi dramatik ziddiyat

Roman bo'ylab Ikromjon va Tursunboy o'rtasidagi munosabatlar dramatik yo'sinda chuqurlashib boradi. Avvaliga mehr, ishonch, orzu; keyinchalik esa shubha, g'azab, kechirib bo'lmas xiyonat. Bu ziddiyatlar orqali yozuvchi inson ruhiyatidagi

murakkabliklarni, otalik mas'uliyatining naqadar yelkasiga og'ir yuk ekanini ko'rsatadi. Ikromjonning qalbidagi og'riq, orzularining chilparchin bo'lishi, umrini bola tarbiyasi yo'lida sarflagan odamning armoni o'quvchiga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Tursunboy esa bunday fidoyilikni qadrlamaydi. U ota ishonchini suiste'mol qiladi. Otasining og'ir mehnati, jang maydonlarida olib borilgan faoliyati, frontdagi ko'rgan yovuzliklari unga ta'sir qilmaydi. Balki undan qochadi. Uning obrazida Said Ahmad zamonaviy jamiyatda qadriyatlar uzilishi, farzandlarning o'z ildiziga befarqligi kabi muammolarni ko'rsatadi.

Ikromjonning ruhiy qulash darajasi

Roman davomida Ikromjonning ruhiy holati asta-sekin o'zgaradi. Tursunboyning xiyonati, urushdagi og'ir yillari, el-yurt oldidagi mas'uliyat, shaxsiy armonlar – bularning barchasi uni ichidan yemiradi. Bir paytlar kuchli, sabrli, hammani birlashtiruvchi markaz bo'lgan otaning ichki tutqichlari so'kina boshlaydi. Hatto u bir lahzada farzandini jazolashni, uni yo'q qilishni istaydi. Bu hissiyotlar bejiz emas – bu xalq orasida “ota la'nati” deyiladigan, chuqur ma'naviy fojiaidir.

Uning “Ko'zimni yerga qaratding” degan izhorlari, uyidan tashqariga chiqa olmay qolishi, xalq oldida yuzi yorug' bo'lib yashash istagining so'nishi – bu ko'ngil tanazzulining belgilaridir. Bu holat o'quvchining ham ruhiyatiga ta'sir qiladi: otaning orzusi, fidoyiligi, sabr-toqati behuda ketmasligi kerak edi, ammo u oxir-oqibat armon bilan qoladi.

Xulosa

Said Ahmad “Ufq” romanida ikki qarama-qarshi obraz – fidoyi ota Ikromjon va mehr-e'tiborni qadrlamagan farzand Tursunboy orqali otalik mas'uliyati, oila qadriyatlari, farzand tarbiyasi va jamiyatdagi axloqiy uzilishlarni chuqur yoritgan. Bu asar o'zbek adabiyotida otaning ma'naviy va ijtimoiy portretini yaratishda muhim qadamlardan biridir. Ikromjon obrazida o'zbek xalqining g'ururi, sadoqati, mas'uliyati jamlangan bo'lsa, Tursunboy obrazi – ogohlantiruvchi obraz, og'riqli haqiqat timsolidir.

Yozuvchi har ikki obraz orqali hayotiy saboq beradi: otalik fidoyilikni talab qiladi, farzandlik esa bu fidoyilikka javob bo'lishi kerak. Aks holda – oila yemiriladi, orzu barbod bo'ladi, jamiyatda ruhiy ziddiyat kuchayadi. Bu esa bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Said Ahmad. *Ufq* (trilogiya). – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Hamdam, Ulug'bek. *Ota: roman*. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2022.
3. Normatov, U. *Adabiy obraz va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 1998.